E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

SUVNI BIRGALIKDA ASRAYMIZ

Nilufar ibragimova

Andijon Davlat Universiteti

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish

ta’lim yo’nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi kunda dolzarb muammoga aylanib borayotga suv muammosi va uni oldini olishga qaratilgan . Suv insonning havodan keying ehtiyoji hisoblanadi . Tobora kamayib borayotgan chuchuk suv noo’rin ishlatilinishi oqibatida kun sayin kamayib qoldi . Ayniqsa , iqlim o’zgarishi tufayli saqlanib turgan muzliklardagi suv resurslarimiz ham “anomal issiq” havo oqimi oqibatida erib o’z holatini yo’qotdi . Soat sayin ortib borayotgan insoniyat esa oxirini o’ylamay suv isrof etib ,kelajak avlod uchun ekalogik inqirozga yetaklamoqda . Dunyo olimlari , ekologlar va barcha insoniyatning muammosiga aylangan suvni tejash , undan oqilona foydalanish , kelajak avlod uchun yetkazish , muzliklarni asrab qolish asosiy maqsad bo’lib qolmoqdadir.

Kalit so’zlar

Suv, demografik portlash, muzliklar, texnologiyalar, tomchilab sug’orish, suvni asrash, ekologiya, anomal issiq.

Abstract

This article focuses on the problem of water, which is becoming an actual problem today, and how to prevent it. The dwindling fresh water has been depleted day by day due to improper use. Especially, our water resources in the glaciers, which were preserved due to climate change, also melted and lost their condition due to anomalous hot air flow. Humanity, which is increasing every hour, is wasting water without thinking about the end, leading to an ecological crisis for the next generation. Saving water, which has become a problem for world scientists, ecologists and all mankind, and its rational use, is the main goal of preserving the glaciers of Vetok for future generations.

Keywords

Water, demographic explosion, glaciers, technologies, drip irrigation, water conservation, ecology, abnormal heat.

Kirish.

Toza ichimlik suvi – Yer sayyorasida insoniyat kun ko‘rishi uchun eng muhim va zarur manbalardan biri. Suv tiklanuvchi resurs bo‘lsada, dunyo aholisi ortib borayotgani hisobiga suv tanqisligi muammosi paydo bo‘lgan hududlar soni ham yildan yilga ko‘paymoqda. Suvni tejash nafaqat bu qimmatbaho resursni tejashga, balki iste’molchilarni hamyonini tejashga ham yordam beradi. Davlatimizga ham suv muammosi kirib kelib bazi hududlarimizni tobora chuqurroq qamrab olmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

Butun dunyoni qiyab kelayotgan suv muammosi bizning diyorimini ham chetlab o'tmadi . suv tanqisligiga asosiy sabab deb noto'g'ri olib borilayotgan qishloq xo'jaligi faoliyati deyish mumkin. Isrofgarchilikka yo'l qo'yib olib borilayotgan faoliyat ortidan qanchadan qancha ichimlik suv zaxiralari tugab bormoqda .Odamzod ovqatsiz 6 hafta yashashi mumkin , ammo suvsiz bir haftadan ortiq umr ko'ra olmaydi. Yer yuzini 70 % ni suv tashkil etadi , lekin ichish uchun yaroqli bo'lgan chuchuk suv 1% ni tahkil etadi .dunyo aholisining 40% ini ichimlik suvi tanqisligidan aziyat chekmoqda . XX asrdan boshlab zamonamizning global muammosiga aylanib ulgurdi. Dunyo aholisi tezo'sib bormoqda va shu bilan bir qatorda toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda . Ehtiyojlar rasman 2020 – yildan boshlab yaqqolroq namoyon bo'ldi , 2050 –yilga borib esa dunyo olimlarining aytishicha 1 litr suv 1 kg oltinga teng bo'lishi mumkin.Countrymetres ma'lumotlariga ko‘ra, 2020 yilda sayyorada aholining yillik o‘sish ko‘rsatkichi 95 millionni tashkil etadi. Taqqoslash uchun, 2015 yilda bu ko‘rsatkich 83 mln kishiga teng bo‘lgan. Qayd etib o‘tish lozimki, yer aholisi 3 karraga ko‘paygan davrda chuchuk suvdan foydalanish hajmi 17 martaga ortgan. Ustiga-ustak, ba'zi prognozlarga ko‘ra, 20 yildan keyin chuchuk suvga bo‘lgan talab hajmi yana 3 karraga ortishi mumkin.Chuchuk suv yetishmovchiligi muammosi O‘zbekistonga ham begona emas. Suv tanqisligi muammosi bo‘lgan mamlakatlar ro‘yxatida O‘zbekiston 25-o‘rinni egallaydi. Mamlakatda suv tanqisligi darajasi yuqori deb baholanadi.2020 yil 16 sentabr kuni prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish masalasi muhokama qilingan edi. Unda ta'kidlanishicha, so‘nggi 10 yilda O‘zbekistonda suv zaxiralari 12 foizga, joriy yilda o‘tgan yilgi bilan solishtirganda 15 foizga kamaygan. O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasida suv resuslarini boshqarish , suvdan samarali foydalanish va suvni isrof qilish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy etish borasida samarali mexanizmlarni joriy etish borasida qator vazifalar belgilangan . Bunga misol bugungi kunda tobora qurib borayotgan Orol dengizini qayta tiklash bo'yicha bir qator samarali ishlar tashkil etilayotgani ham misol bo'la oladi . Aosan uni suv bilan taminlovchi Amudaryo va Sirdaryo havzalari qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganligi sababli , Orolga quyilayotgan suv to'xtab qolgan.Endilikda ushbu havzalar o'rni tiklanishi yo'lga qo'yilmoqda . Bu vazuyatda taniqli "Ekoservis" nodavlat tashkiloti rahbari professor Rasul Razzoqovning fikrini qo'llash joiz u Amerika tajribasini qo'llashni tavsiya etadi , ya'ni paxta dalalarini sug'orishda 75% chuchuk suv 25% sho'r qo'shib sug'orishni tashkil etish va undan chiqqan suv orqali boshqa ekinlarni ham sug'orishni tashkil etishni tafsiya etadi . Markaziy Osiyo mamlakatlari qishloq xo‘jaligi suvning asosiy iste'molchisi hisoblanadi. Dehqonchilik yerlari viloyat hududining 73,5 foizini egallaydi. Hisobotga ko‘ra, 2020-yilda Markaziy Osiyoda suvning 79 foizi sug‘orish uchun ishlatilgan. Sug‘orma dehqonchilik nafaqat qishloq xo‘jaligining asosi, balki mintaqada oziq-ovqat xavfsizligining asosi bo‘lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytadigon bo'lsak , biz insonlar suvni har kuni betartib ishlatamiz va juda katta toza suv yoqotamiz , osha suv o'z hayot faoliyatimiz uchun qanchalik ekanligini unutamiz . inson tanasida 2% suv yoqolsa , aqliy faoliyat 20% ga qisqarub ketadi . Toshkent shaxrining o'zida bir kunda kishi boshiga 700 litr suv sarflanar ekan . Bugungi kunda dunyo kurashayot suv tanqisligiga bizning yurtimiz ham befarq emas albatta . 2021 yilning o'zida 433 ming gektar maydonga suvni tejovchi texnologiyalar joriy etildi. 2022 – yilga kelib esa bu ko'rsatkich 478 mimg gektarga yetdi . O'zbekistonda so'ngi 15 yil ichida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi suv hajmi 3048 metr kubdan

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

1589 metr kubga kamaygan . Bunga siz-u biz also befarq bo'lmasligimiz lozim , suvni ifloslanishini oldini olishimiz , tejashimiz , yangi texnologiyalarni joriy etishimiz lozim . 2021-yilda 4000 gektar maydonda suvni tejovchi texnologiyalarni o'rnatilgan—, bu 20-25 million kub metr suvni tejash imkonini beradi. 2021–2023-yillarda suv iste'molchilarining mas'uliyati va hissasini oshirish maqsadida 100 dan ortiq davlat-xususiy sheriklik loyihalari imzolanishi, 18 ming 576 ta suv o'lchash postlariga raqamli qurilmalar, 1 ming 688 ta nasos stantsiyasiga "onlayn" rejimda monitoring qilish qurilmalari o'rnatilishi, 27 ming 270 ta meliorativ quduqni avtomatlashtirilgan monitoring tizimiga o'tkazish, shuningdek 100 ta gidrotexnik inshootni avtomatlashtirish rejalashtirilgan. Bu sonlarga biz oddiy fuqarolar ha o'z hissamizni oddiy yo'llar orqali qo'sha olamiz . Maishiy turmushda suvni tejash .Oqayotgan kranlarni, hojatxonalarni, maishiy texnika va maysa (gazon) purkagichlarni zudlik bilan tuzating. Oqish kichik bo'lishi mumkin, lekin vaqt o'tishi bilan ular katta suv yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

Tishlaringizni yuvayotganda suvni o'chiring. AQSh atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) ma'lumotlariga ko'ra, bu oddiy qadam bir oyda 700 litrdan ortiq suvni tejash imkonini beradi.

Kir yuvayotganda suvdan kamroq foydalaning. Kir yuvish mashinasi yuzlab litr suvni sarflashi mumkin, shuning uchun undan oqilona foydalaning. Kir yuvish mashinasini ishga tushirishdan avval kirni to'liq yuklash uchun yetarlicha kiyimingiz borligini aniqlang. Yuviladigan kirlar soni oz bo'lsa, shunga mos ravishda mashinadagi suv sathini rostlang.

Vanna-hammom o'rniga iloji boricha kamroq dush qabul qiling. EPA ma'lumotlariga ko'ra, agar siz besh daqiqa yoki undan kamroq vaqt davomida dush qabul qilsangiz, siz 30 dan 45 litrgacha suv ishlatasiz. Bu raqamni 300 litr suv sarflaydigan vannalar bilan solishtiring.

Maysazorni (gazon) aqlli sug'orishni mashq qiling. Maysazoringizni kunning eng maqbul vaqtida sug'orib oling va sug'orish tizimingiz trotuarni emas, balki maysazorni sug'orayotganiga ishonch hosil qiling.

Iloji boricha suvni tejaydigan kranlar, kir yuvish mashinalari, hojatxonalar va idish yuvish mashinalarini sotib oling. Suv va energiyani tejaydigan asboblarni sotib olish nafaqat suvni, balki elektr energiyasini ham tejashga yordam beradi.

Uyda energiya auditini o'tkazing. Professionallar oddiy iste'molchi sezmaydigan suv isrof bo'lgan joylarni aniqlab berishi mumkin.Zero suv yerning qon tomiri , usiz hayot mavjud emas .

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.To'xtaev A. Ekologiya – Toshkent:1988

2.Qodirova MalikaxonQaxramonovna, Nasimov, Doston Sobir O'g'li MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IDROKINI IJODIY O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH // ORIENSS2022

3.Majidov, JasurBaxtiyorovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. Oriental rnaissance:innovatie:educational,natural and social sciences,2 (2),608-613.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

4.Shodimetov Y. Ijtimoiyekologiyagakirish.-Toshkent:O'qituvchi,1996

5.Do'stxo'djayeva R.I. Ekologiya .Maruzalarmatni-Toshkent : TFI,2006.

6.Salomatchilik barcha uchun:O'zbekistoning yangi milliylikdagi asosiy maqsadi.- Toshkent,2006.

7.TixomirovN.P. Demografiya :Методы анализа и прогнозирования. Учебник.- M.Экзамен, 2005

8.Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va rivojlanishi,Monografiya – T.:Fan va texnologiya,2010.

10.Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy va denografik sitatistika T.:Universitet,2002.

11.Мокеров ИП ., Кузьмин А. И Экономико-демографическое развитие семьи.- M.:Наука, 1990.

Internet saytlari

1.https://lex.uz

2.https://yuz.uz

3.https://uzpfiti.uz

4.https://piima.uz

5.https://t.me

WORDLY
KNOWLEDGE